

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA KREATIV QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISH.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14714055>

Ahmadjonova Ozoda Alisher qizi

Namangan davlat pedagogika instituti Boshlang'ich talim 2-kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida kreativ qobiliyatni rivojlantirish bo'yicha fikr va mulohazalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Ta'lim, konsepsiya, ta'lim jarayoni, kreativ fikrlash, kasbiy kompetentlik, taraqqiyot.*

XXI asrda jahon miqosida ta'lim barqaror taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy omil sifatida e'tirof etilib, 2030-yilgacha belgilangan Xalqaro ta'lim konsepsiyasida sifatli ta'lim olish va ijodiy qobiliyatni rag'batlantirish dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Unda ta'limning asosiy bo'g'ini hisoblangan boshlang'ich ta'limda fanlarni innovatsiya va zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida o'qitish, o'quvchilarda integratsiyalashgan ta'limni rivojlantirish, ularda ijtimoiy faollik ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik tizimning imkoniyatlarini kengaytirishni taqozo qiladi. Bu esa ta'lim jarayonida o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish va o'quv materiallarini fanlararo aloqadorlik tamoyillari asosida egallashda kasbiy kompetentlikni orttirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyo ta'lim tizimlarining xalqarolashuvi jarayonlari milliy ta'lim tizimi oldiga yangidan-yangi vazifalarni qo'yimoqda. Jumladan, hozirgi kunda maktablarning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda dunyoga yaxlit, o'zaro aloqador bo'lgan birlik sifatida qarash, uning global muammolari hamda bu muammolar yechimini ko'ra va tushuna bilishni shakllantirishdan iborat. Shu bilan birga, ilg'or xorijiy tajribalarni integratsiyalash orqali jahon innovatsion-integrativ ta'lim muhitini kengaytirish, akmeologik yondashuv asosida innovatsion-kasbiy o'sish dinamikasini maqbullashtirish mexanizmini takomillashtirishdan iborat.

Darhaqiqat bugungi kunda ta'lim sohasida olib borilayotgan keng ko'lamlı islohotlar, ta'lim mazmunini takomillashtirishga oid qabul qilingan hukumat qarorlari, ta'limni hayot bilan bog'lashni, o'qitish samaradorligini oshirishni, tez taraqqiy etib borayotgan jamiyat uchun har tomonlama rivojlangan faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalab, yetishtirishni talab qiladi. Bu o'rinda ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarning kirib kelishi va qo'llanishi davr talabi bilan bevosita bog'liqdir. Shuning uchun ham yosh avlodni rivojlangan huquqiy madaniyatli qilib tarbiyalash pedagog kadrlardan yangicha yondashuv hamda ijodkorlik, kreativlikni talab etadi. Avvalo boshlang'ich sinf o'quvchilarda fikrlash qobiliyatini shakllantirishda tanlanadigan zamonaviy ta'lim texnologiyalarini ijtimoiy buyurtma sifatida mavjud davlat talablariga va

bozor iqtisodiyoti talablariga moslashtirish hamda ilmiylik tamoyili asosida ishlab chiqish, nazariya bilan amaliyotning o'zaro aloqadorligini ta'minlanishi va yana albatta o'zida insonparvarlik va demokratik xususiyatlarni aks ettirishiga alohida ahamiyat berish zarur. Ta'lim tizimiga yangi kirib kelgan texnologiyalardan biri bu o'qitishning kreativ texnologiyasi bo'lib, uning maqsadi – insonda ijodkorlikni uyg'otish va uning o'zida bor bo'lgan ijodiy

imkoniyat (potensial)ni rivojlantirishdir. O'qitishning kreativ texnologiyasi bajarilganda shaxs ijodkorlik ob'yekti darajasidan ijodkor sub'yektga o'tkaziladi, o'quv materiali o'zlashtirish fanidan biron ijodkorlik, yaratuvchanlik maqsadiga erishish vositasiga aylanadi. Kreativ texnologiya yangi kerakli bilim olish, yaratish va ishlab chiqarishga qaratilgan. Kreativlik so'zini ilk bor 1922-yilda AQSh olimi D. Simpson tomonidan qo'llanilgan. Ushbu atama orqali shaxs qolipdagi, stereotip, odatiy tafakkurdan voz kechish qobiliyatini ta'riflagan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik fikrlash qobiliyati va ijodkorlik xususiyati uning ta'lim jarayonidagi muloqotida, tafakkurida, his-tuyg'ularida va muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Patti Drapeau nuqtai nazariga ko'ra kreativ fikrlash, ehg avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlashdir. Darhaqiqat, har tomonlama fikrlash o'quvchilardan berilgan turli topshiriq, masala va vazifalarni bajarishda ko'plab g'oyalarga tayanishni talab etadi. Ya'ni topshiriqni bajarish, masalani yechishda o'quvchi yechimning bir necha variantlarini izlaydi, so'ngra ular orasidan eng maqbul birgina to'g'ri yechimga to'xtaladi. O'qituvchining ham dars jarayoniga kreativ yondashuvi o'quvchilarning darsda berilgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishlari, qo'llay olishlari uchun muhim omil sanaladi. O'qituvchining kreativligi darsda ikki holatni kafolatlaydi:

- Past o'zlashtiruvchi o'quvchilarni, darsda "bir xillik" dan zerikkan o'quvchilar e'tiborini dars jarayoniga jab etish va qiziqtirish
- O'quvchilarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyatni aniqlash va rivojlantirish, rag'batlantirish uchun imkoniyat yaratadi.

Boshlang'ich ta'lim – bu har bir bolaning hayotida chuqur iz qoldiruvchi ta'lim turidan biri bo'lib, ta'limning bu bosqichida pedagog o'qituvchilarga katta mas'uliyat yuklatiladi. Ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi hali maxsus o'rganishni talab etmoqda. O'quvchilar o'z-o'zidan kreativ bo'lib qolmaydi. Uning kreativ qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. O'qituvchilar o'quvchilar bilan hamkorlikda ish yuritib, ularning har bir fikrini inobatga olishi va buni o'quvchiga sezdirishi kabi muhim vazifalarni bajarish orqali o'quvchilarni o'zgacha yondashuvli ya'ni kreativ bo'lishlariga erishishi mumkin. O'qituvchi o'quvchilarga muammoli masala va vaziyatlarni berib, o'quvchining masala yechimini topishga ijodiy yondashishi undagi hissiy irodaviy sifatlarni rivojlanishiga yordam beradi. Bu o'quvchilarni o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganishiga imkoniyat, ichki ehtiyojning oshishiga turtki bo'ladi.

Pedagogikaning asosiy vazifalaridan biri barcha bolalarning kreativ faoliyati har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydigan shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Kreativlik – shaxsning yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlar bilan bog'liq ko'nikmalar majmui sifatida namoyon bo'ladi. Kreativlik o'z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intiutsiya, natijalarni oldindan ko'ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiyaning qamrab oladi. SHaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, histuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o'tkirlikni belgilab beradi. Ko'rinib turibdiki, kreativlik bevosita shaxsning individual psixologik xususiyatlari bilan bog'liq jarayon hisoblanadi. Uning rivojlanishi esa intellekt-intuitsiya-mantiqiy fikrlash jarayoni ta'sirida kechadi. O'quvchilarda kreativlikni rivojlantirish ta'lim mazmunini o'zlashtirishda talabalarning bilim saviyasi, o'zlashtirish darajasi, ta'lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda o'qitish jarayonini tashkil etishni talab qiladi.

Ta'lim jarayonida kreativ faoliyatni rivojlantirishning asosi bo'lgan kognitiv bilimlarni amalda qayta ishlab chiqish va takomillashtirish imkonini beradigan interfaol mashg'ulot shakllari va metodlarini tanlash va tatbiq qilish lozim. SHu bilan bir qatorda muayyan sohalarida chuqur qiziqishlarini, intilishi va qobiliyatini namoyon qilayotgan o'quvchilarni aniqlash, ularga bundan keyingi rivojlanishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish lozim. Buning uchun esa: boshlang'ich sinf o'quvchilarning kreativ faoliyatini rivojlantirishga doir shart-sharoitlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada:

1. O'quvchilar kreativ faoliyatini rivojlantirishga doir innovatsion faoliyatga tayyorlash.
2. O'qituvchi va o'quvchilar munosabatida hamkorlik faoliyatini vujudga keltirish.
3. Ijodiy faoliyatni rivojlantirishda bilishga doir innovatsion texnologiyalardan foydalanish.

O'quvchilarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishda quyidagi ish shakllaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega: ma'lumotlarni tahlil etish, tezkor qarorlar qabul qilish, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi treninglarni tashkil etish; tasavvurlarni va obrazli qarashlarni shakllantirishga yo'naltirilgan ijodiy mashqlar, topshiriqlarni bajarish; keyslar bilan ishlash; guruhiy ish shakllari va debatlarini tashkil etish; o'quv loyihalarini tayyorlash; portfoliolarni shakllantirish; darsdan keyingi va to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'yish.

Xulosa qilib aytish mumkinki o'quvchilarning kreativ qiziqishlari va ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan g'oyalar, kontseptsiyalar hamda ilg'or pedagogik tajribalar asosida o'qitish jarayonini tashkil etish kreativlikni rivojlantirishga nisbatan mazmunli-faoliyatli yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Exsonova F.T. O'quvchilarda kreativ tafakkurni rivojlantirish yo'llari // Uzluksiz ta'lim. – Toshkent, 2018. – №4. – B.46-49. (13.00.00. №9).
2. “Kreativ pedagogika asoslari” moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. Toshkent-2016.
3. Yuldashev U.A., Xudoyberdiev M.Z., Axmedov, T.B. O'quv jarayonining sifatini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish. //Academic research in educational sciences, 2021, 2(3), 1262-1268 betlar
4. Сусоколова И. А. Трудности тестирования креативности: Материалы IV Всероссийского съезда Российского психологического общества. М., 2007. Т. 3. С. 221.
5. Nishonova Z. Mustaqil ijodiy fikrlash va shaxs xislatlari// Xalq ta'limi.- Toshkent, 2001.№.4.-B 38-42